XALQ DEPUTATLARI KOGON TUMANI KENGASHINING QARORI

2022 - yil 30 - dekabr VI-60-173-2-36-K/22 Kogon tuman hokimligi

Kogon tumani bo‘yicha 2023 yil uchun jismoniy va yuridik shaxslarning yer solig‘i stavkalarini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 429 va 437-moddalari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 3 dekabrdagi “Resurs soliqlari va mol-mulk solig‘ini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” PF-6121-sonli Farmoni hamda xalq deputatlari viloyat Kengashining qaroriga asosan Kogon tumani bo‘yicha yuridik shaxslarning qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlari va jismoniy shaxslar uchun belgilangan yer soliqlarining 2023 yil uchun soliq stavkalarini tartibga solish maqsadida Xalq deputatlari Kogon tumani Kengashi,

Q A R O R Q I L D I:

1. Xalq deputatlari viloyat Kengashining qaroriga asosan Kogon tuman bo‘yicha yuridik shaxslarning qishloq xo‘jaligida mo‘ljallanmagan yerlari bazaviy soliq stavkasi 1 gektar uchun mutlaq miqdori 29760,0 ming.so‘m hamda jismoniy shaxslarga 1 kv.m uchun bazaviy soliq stavkasining mutlaq miqdori 255,0 belgilanishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimligi moliya bo‘limi L.Halimov hamda tuman davlat soliq inspeksiyasi A.Latipovning maxalla fukarolar yig‘inlarining iqtisodiy rivojlanganlik darajasi hamda kelgusi yil uchun belgilangan tuman mahalliy budjet prognozidan kelib chiqib mahalla fuqarolar yig‘inlari bo‘yicha 2023 yilda tuman bo‘yicha yuridik va jismoniy shaxslarning bazaviy yer solig‘i stavkalarining mutlaq miqdorlariga nisbattan kamaytiriluvchi va oshiriluvchi koeffitsiyentlarni qo‘llash bo‘yicha takliflari inobatga olinsin.

3. Mahalla fuqarolar yig‘inlarinig iqtisodiy salohiyati va rivojlanishiga qarab, qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha 2023 yilda Kogon tumani uchun mutloq miqdorda belgilangan yer solig‘ining bazaviy soliq stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar miqdorlari 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Mahalla fuqarolar yig‘inlarinig iqtisodiy salohiyati va rivojlanishiga qarab, jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) 2023 yilda Kogon tumani uchun mutloq miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga qo‘laniladigan koeffitsiyentlar miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Xalq deputatlari Kogon tuman Kengashlari 2022 yil 9 fevraldagi VI-49-13-2-36-K/22-sonli qarorining 1 va 2-ilovasi 2023 yil 1 yanvardan o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

6. Tuman hokimligi ushbu qaror bilan ma’qullangan Kogon tumani bo‘yicha 2023 yil uchun jismoniy va yuridik shaxslarning yer solig‘i stavkalarini “ Buxoronoma” va “Buxarskiy vestnik”gazetalarida hamda tuman hokimligining rasmiy vebsaytida e’lon qilsin.

7. Mazkur qaror bajarilishining nazorati Xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi raisi N.Jumayev zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **Esanov.M.T**

Xalq deputatlari Kogon tuman
Kengashining
2022 yil 30 dekabrdagi
VI-60-173-2-36-K/22-son qaroriga
1-ilova

Kogon tumani Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslarga yer solig‘i stavkasi

T.R	Mahalla fuqarolar yig‘inlari nomi	Yuridik shaxslarning qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlari uchun yer solig‘i stavkasi 2023 yil uchun	
		Koeffitsent miqdori	Soliq summasi (1 gektar uchun, so‘mda)
	Kogon tumani (viloyat kengashi tomonidan tasdiqlangan stavka)	**1,00**	**29 760 000**
1	Beklar MFY	0,90	26 784 000,0
2	Istiqbol MFY	0,98	29 165 000,0
3	Niyoz-Xoji MFY	0,90	26 784 000,0
4	O‘bacho‘li MFY	0,98	29 165 000,0
5	Xo‘ja-Yakshaba MFY	0,87	25 891 000,0
6	Tun-Iroq MFY	0,87	25 891 000,0
7	Nurafshon MFY	0,87	25 891 000,0
8	Tutkunda MFY	1,18	35 117 000,0
9	O‘rta-Cho‘l MFY	0,86	25 594 000,0
10	Yangi-Xayot MFY	0,98	29 165 000,0
11	Suxor MFY	1,04	30 950 000,0
12	Kogon MFY	0,88	26 189 000,0
13	Sorg‘un MFY	0,87	25 891 000,0
14	Siyoz-Poyon MFY	1,03	30 653 000,0
15	Navro‘z MFY	0,92	27 379 000,0
16	B.Naqshband MFY	1,03	30 653 000,0
17	Hukmatobod MFY	0,87	25 891 000,0
18	Choloki MFY	0,98	29 165 000,0
19	Sarayon MFY	1,02	30 355 000,0
20	Geofizika MFY	1,08	32 141 000,0
21	O‘zbekiston MFY	1,08	32 141 000,0
22	Mustaqillik MFY	1,03	30 653 000,0
23	Taraqqiyot MFY	0,98	29 165 000,0

Xalq deputatlari Kogon tuman
Kengashining
2022 yil 30 dekabrdagi
VI-60-173-2-36-K/22-son qaroriga
2-ilova

Kogon tumani Jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar

T/r.	Mahalla fuqarolar yig‘inlari nomi	Jismoniy shaxslar uchun yer solig‘i stavkasi 2023 yil uchun	
		Koeffitsent miqdori	Soliq summasi (1 kv.m uchun, so‘mda)
	Kogon tumani (viloyat kengashi tomonidan tasdiqlangan stavka)	**1,00**	**255,0**
1	Beklar MFY	0,98	250,0
2	Istiqbol MFY	0,98	250,0
3	Niyoz-Xoji MFY	1,05	268,0
4	O‘bacho‘li MFY	0,98	250,0
5	Xo‘ja-Yakshaba MFY	0,94	240,0
6	Tun-Iroq MFY	0,94	240,0
7	Nurafshon MFY	0,98	250,0
8	Tutkunda MFY	0,98	250,0
9	O‘rta-Cho‘l MFY	0,94	240,0
10	Yangi-Xayot MFY	0,98	250,0
11	Suxor MFY	1,05	268,0
12	Kogon MFY	0,98	250,0
13	Sorg‘un MFY	0,98	250,0
14	Siyoz-Poyon MFY	0,98	250,0
15	Navro‘z MFY	0,98	250,0
16	B.Naqshband MFY	0,98	250,0
17	Hukmatobod MFY	1,05	268,0
18	Choloki MFY	1,05	268,0
19	Sarayon MFY	0,98	250,0
20	Geofizika MFY	1,05	268,0
21	O‘zbekiston MFY	1,05	268,0
22	Mustaqillik MFY	0,94	240,0
23	Taraqqiyot MFY	1,05	268,0